


BADIIY ASARDA SHEVA ELEMENTLARINING BADIIY FUNKSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20699727>

Tilovova Muyassar Yo‘ldosh qizi

F.f.f.d, dotsent.

Begaliyeva Ra‘no Mahmudjonovna

Turon universiteti magistri

Annotatsiya. *O‘zbek adabiyotida Tog‘ay Murod ijodi o‘ziga xos badiiy uslubi, xalqona tili va chuqur milliy ruh bilan sug‘orilgan asarlari bilan alohida ajralib turadi. Yozuvchining qissa va romanlarida milliy kolorit faqat fon vazifasini bajarmay, balki asarning mavzuiy yo‘nalishi va g‘oyaviy mazmuni bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Tog‘ay Murod asarlarida milliylik va mavzu aktualligi o‘zaro uzviy aloqada bo‘lgan badiiy hodisa sifatida qaraladi. Tog‘ay Murod qissalari va romanlarining asosiy xususiyatlaridan biri — xalq hayotini ichidan bilib, uni bezaksiz, tabiiy holatda tasvirlashidir.*

Annotation. *In Uzbek literature, Togay Murad's work is distinguished by its unique artistic style, folk language and works imbued with a deep national spirit. In the writer's stories and novels, the national color is manifested not only as a background, but also in direct connection with the thematic direction and ideological content of the work. In this regard, in Togay Murad's works, nationality and topicality are considered as an artistic phenomenon that is inextricably linked. One of the main features of Togay Murad's stories and novels is that he knows the life of the people from the inside and describes it in a natural, unadorned way.*

Kalit so‘zlar. *badiiyat, sheva, til xususiyatlari, kolorit, milliylik, urf-odat, sheva, badiiy til.*

Key words: *art, dialect, language features, color, nationality, tradition, dialect, artistic language.*

Yozuvchi ko‘pincha oddiy qishloq odamlari taqdirini, ularning kundalik tashvishlari, ichki kechinmalari va hayotiy muammolarini badiiy tadqiq etadi. Bu jarayonda milliy kolorit asar mazmunini boyituvchi asosiy vositaga aylanadi. Qahramonlarning yashash muhiti, urf-odatlarini, mehnat jarayoni va nutqi orqali o‘zbek xalqining milliy

mentaliteti yorqin aks ettiriladi. Yozuvchining qissalarida milliy kolorit ko‘proq qahramonlarning ruhiy holati va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq tarzda ochiladi. Tog‘ay Murod uchun milliylik tashqi belgilar bilangina cheklanmaydi, balki qahramonning ichki dunyosida, uning hayotga munosabatida, sabr-toqati va e‘tiqodida namoyon bo‘ladi. Shu



sababli yozuvchining qissalari o‘z davri muammolarini ko‘tarish bilan birga, umuminsoniy mazmunga ega bo‘lib boradi. Romanlarida esa Tog‘ay Murod milliy koloritni yanada kengroq epik ko‘lamda tasvirlaydi. Roman janri yozuvchiga xalq hayotining muhim bosqichlarini, tarixiy va ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq ochish imkonini beradi. Bu asarlarda milliy kolorit voqealar rivoji, obrazlar tizimi va muallif pozitsiyasi bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Qahramonlar taqdiri orqali jamiyatdagi muammolar, davr ziddiyatlari va insoniy qadriyatlar yoritiladi. Tog‘ay Murod asarlarining mavzujihatdan rang barangligi ham aynan shu milliy asos bilan chambarchas bog‘liq. Yozuvchi ko‘targan muammolar — inson qadr-qimmat, erkinlik, adolat, vijdon, ona yurtga muhabbat kabi masalalar o‘zbek xalqining hayotiy tajribasi orqali ifodalanadi. Milliy kolorit bu muammolarni umumlashma darajasiga olib chiqib, ularni zamon va makondan tashqari badiiy ahamiyatga ega qiladi. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidan olingan quyidagi jummalarda milliy tilning ijodkor tasvir bayonidagi mahorati alohida ta’kidlanadi: “Matnda ishlatilgan “bobomiz”, “ketmon”, “daladan bosh ko‘tarmayin”, “o‘tkich-ketkich” kabi birliklar sof xalqona leksikaga mansub. Bu so‘zlar o‘zbek xalqining kundalik hayoti, mehnat jarayoni va turmush tarzini bevosita aks ettiradi. Ayniqsa, ketmon obrazi o‘zbek dehqonchilik madaniyatining ramziy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. U

shunchaki mehnat quroli emas, balki halol rizq, sabr va bardosh timsolidir. “Bobomiz” so‘zining qo‘llanishi ham alohida e‘tiborga loyiq. Bu yerda oddiy “chol” yoki “qariya” emas, balki hurmat, yaqinlik va mehr ifodalovchi birlik tanlangan. Bu esa o‘zbek tiliga xos kattaga hurmat konseptining til orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Matnda bir xil sintaktik qurilmalar va fe‘llarning qayta-qayta takrorlanishi kuzatiladi:

kalima qaytarib-qaytarib ketmon chopadi;

Xudoni yodlab-yodlab ketmon chopadi;

Xudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi;

Bu takrorlar tasodifiy emas. Ular bir tomondan harakatning uzluksizligini, ikkinchi tomondan esa qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalaydi. Badiiy jihatdan bunday usul matnga ritm va ohangdorlik bag‘ishlaydi, uni og‘zaki xalq ijodiga yaqinlashtiradi. Milliy jihatdan esa bu holat o‘zbek xalqining mehnat bilan ibodatni uyg‘un holda ko‘rishini aks ettiradi. Mehnat — ibodat, ibodat esa kundalik hayotning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Bu holat milliy tafakkurda dinning majburiy shior emas, balki ichki e‘tiqod, kundalik hayot mezoni ekanini ko‘rsatadi. Boboning yo‘ldan o‘tganlarni tanimasligi, lekin ularni “bir mo‘min, musulmon” deb qabul qilishi — o‘zbek xalqiga xos insonparvarlik, gumonsiz ishonch va bag‘rikenglik belgilaridir. Gaplar qisqa, sodda va ko‘pincha bog‘lovchisiz tuzilgan. Bu uslub og‘zaki nutqqa yaqin



bo'lib, matnni sun'iylikdan xoli qiladi.

Masalan:

Bilmaydi. Bilgisi-da kelmaydi.

Bu ikki sodda gap orqali qahramonning befarqligi emas, balki ichki xotirjamligi ifodalanadi. U dunyoning shovqinidan yiroq, o'z mehnati va e'tiqodi bilan band. Shuningdek, bunday sintaktik tuzilma milliy adabiyotda, xususan, qishloq hayotini tasvirlovchi asarlarda keng uchraydi. Bu uslub o'quvchiga tanish va yaqin tuyuladi. Qahramon obrazining til orqali yaratilishi bilan ham ahamiyatli. Bobomiz obrazi bevosita tasvirlanmaydi, uning tashqi ko'rinishi berilmaydi. Ammo til vositasida u tirik, aniq va ishonarli obrazga aylanadi. Uning ketmon chopishi, yo'lga qaramasligi, odamlarni ajratmasligi — barchasi milliy xarakter belgilarini ochadi. Bu yerda til obraz yaratishning asosiy quroliga aylanadi. Har bir so'z, har bir takror milliy ruhni mustahkamlaydi. Mazkur parcha o'zbek badiiy tilining boy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Unda xalqona leksika, diniy tushunchalar, sintaktik soddalik va takrorlash usullari uyg'unlashib, milliy ruhni ifodalovchi yaxlit badiiy manzara hosil qiladi.

Bunday matnlar badiiy asarda milliy ahamiyat kasb etadi, chunki ular xalqning kimligi, qanday yashashi va nimaga ishonishini til orqali avloddan-avlodga yetkazadi. Til esa bu jarayonda nafaqat aloqa vositasi, balki milliy xotira va ma'naviyat saqlovchisi sifatida namoyon bo'ladi. Xalqona til, sheva unsurlari va og'zaki nutqqa xos ifodalar

qahramonlar obrazini jonlantirib, asar mazmunini hayotiy qiladi. Tilning tabiiyligi tufayli yozuvchi ko'targan ijtimoiy va axloqiy masalalar o'quvchi ongiga oson va ta'sirchan yetib boradi. Tog'ay Murod qissalari va romanlarida milliy koloritning kuchli bo'lishi asarlarning zamonaviy adabiy jarayondagi ahamiyatini oshiradi. Chunki yozuvchi milliylik orqali global muammolarni yoritadi, oddiy inson taqdiri orqali butun jamiyat hayotini badiiy tadqiq etadi. Bu esa uning asarlarini faqat muayyan davr mahsuli emas, balki doimiy o'qiladigan badiiy qadriyat darajasiga ko'taradi.

Yozuvchi obraz yaratishda, avvalo, xalq hayotini ichidan bilishga tayanadi. Tog'ay Murod qahramonlari ko'pincha oddiy dehqonlar, qishloq mehnatkashlari bo'lib, ularning hayoti, tashvishlari va ichki kechinmalari badiiy tadqiq markaziga qo'yiladi. Bu obrazlar sun'iy idealizatsiyadan xoli bo'lib, barcha kamchiliklari, ziddiyatlari va ruhiy kechinmalari bilan tasvirlanadi. Shu jihatdan yozuvchi yaratgan qahramonlar hayotga yaqinligi bilan o'quvchida ishonch uyg'otadi. Tog'ay Murod asarlarida qishloq muhiti obrazlarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Qishloq hayoti — tabiat bilan chambarchas bog'liq, mehnat ritmiga asoslangan va an'anaviy qadriyatlar bilan sug'orilgan muhit sifatida tasvirlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, mavsumiy mehnat jarayonlari qahramonlar xarakterining ochilishiga xizmat qiladi. Qishloq muhiti qahramonlarning



dunyoqarashi, hayotga munosabati va axloqiy qarashlarini belgilab beradi. Obraz yaratishda yozuvchi til vositalaridan mohirona foydalanadi. Xalqona til, og‘zaki nutqqa xos sintaksis va sheva unsurlari qahramonlarning ichki dunyosini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Qahramon nutqi orqali ularning ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiy holati va hayotiy tajribasi ifodalanadi. Tilning soddaligi va tabiiyligi obrazlarning jonli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Tog‘ay Murod qahramonlari ko‘pincha ichki monologlar, sukut va ramziy harakatlar orqali ochiladi. Yozuvchi tashqi voqealardan ko‘ra, qahramonning ichki dunyosiga chuqurroq e’tibor qaratadi. Qishloq muhiti bu jarayonda ramziy ma’noga ega bo‘lib, tabiat manzaralari qahramon ruhiy holatining ifodachisiga aylanadi. Masalan, yer, suv, daraxt, dalalar obrazlari inson hayoti va taqdiri bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Shuningdek, Tog‘ay Murod ijodida qishloq muhitining aks etishi ijtimoiy muammolar bilan ham bog‘liqdir. Yozuvchi qishloq hayotidagi ijtimoiy tengsizlik, insoniy qadriyatlarning yemirilishi, ma’naviy izlanish kabi masalalarni obrazlar taqdiri orqali yoritadi. Bu muammolar muayyan davrga xos bo‘lishiga qaramay, umumiy insoniy mazmun kasb etadi. Yozuvchining obraz yaratishdagi yana bir muhim jihati — qahramonlarni muhitdan ajratmasdan tasvirlashidir. Qishloq hayoti, odamlararo munosabatlar, urf-odat va an’analar obrazlar xarakterining ajralmas qismi sifatida beriladi. Natijada Tog‘ay Murod

yaratgan obrazlar nafaqat individual shaxs, balki muayyan ijtimoiy qatlam vakili sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tog‘ay Murod ijodida obraz yaratish va qishloq muhitining aks etishi bir-birini to‘ldiruvchi badiiy jarayondir. Shu o‘rinda obraz atamasining mohiyatiga e’tibor qaratamiz: “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz osha borliqning oddiygina aksi emas, yoq, u borliqning san’atkor kozi bilan korilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning koplalab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni ozi emas, balki tamoman yangi mavjudlik — badiiy borliqdir”.³⁹ D.Qur’onov. Yozuvchi qishloq hayotini chuqur bilgan holda, xalqona xarakterga ega, ruhiy jihatdan mukammal obrazlar yaratadi. Bu obrazlar orqali o‘zbek qishlog‘ining hayoti, muammolari va ma’naviy olami yuksak badiiy darajada aks ettiriladi. Tog‘ay Murod ijodi shu jihatlari bilan o‘zbek adabiyotida qishloq mavzusini yangi badiiy bosqichga olib chiqqan muhim adabiy hodisa sifatida baholanadi. Badiiy adabiyotda milliy xarakter yaratish muammosi adabiyotshunoslikning muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Milliy xarakter xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti, mentaliteti va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu xarakter badiiy asarda, eng avvalo, til orqali yuzaga chiqadi. Xususan, sheva

³⁹ Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: 2018. 91-bet



va xalqona til elementlari milliy xarakter yaratishda asosiy estetik vositalardan biri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotida Tog‘ay Murod qissalari bu jihatdan alohida e‘tiborga loyiqdir.

Tog‘ay Murod ijodida til oddiy ifoda vositasi emas, balki qahramon ruhiyati va milliy o‘zlikni ochib beruvchi badiiy quroldir. Yozuvchi qissalarida Surxondaryo vohasiga xos sheva elementlari, og‘zaki nutqqa xos sintaktik qurilmalar va xalqona iboralar orqali milliy xarakter yorqin ifodalanadi. Qahramonlar nutqining tabiiyligi ularning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy muhitini ochishga xizmat qiladi. Sheva elementlari Tog‘ay Murod qissalarida, avvalo, qahramonning qayerdan ekanini, qanday muhitda shakllanganini ko‘rsatadi. Bu esa milliy xarakter yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlarning so‘zlash uslubi, ayrim mahalliy so‘z va iboralardan foydalanishi ularning xarakterini sun‘iy emas, balki tabiiy va ishonarli qiladi. Sheva bu yerda faqat hududiy belgigina emas, balki milliy ruh ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Tog‘ay Murod qissalarida xalqona til elementlari qahramonlarning ichki dunyosini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Og‘zaki nutqqa xos sodda jumlar, takrorlar, ohangdorlik va hissiy ifodalar qahramonlarning fikrlash tarzini yaqqol ko‘rsatadi. Bunday til vositalari orqali yozuvchi qahramonlarning sabr-toqati,

matonati, ba‘zan esa ichki ziddiyatlarini ochib beradi. Natijada milliy xarakter faqat tashqi belgilar orqali emas, balki ruhiy holat orqali ham ifodalanadi. Shuningdek, Tog‘ay Murod qissalarida til va sheva qahramonlarning axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog‘langan. Ularning nutqida aks etgan sodda, ba‘zan keskin, ammo samimiy ohang milliy xarakterga xos to‘g‘rilik, qat‘iyat va vijdonlilik kabi sifatlarni namoyon etadi. Bu hol yozuvchining qahramonlarini umumlashma darajasiga ko‘tarib, ularni muayyan xalq vakili sifatida talqin etish imkonini beradi. Milliy xarakter yaratishda sheva va til elementlarining yana bir muhim jihati — muhit bilan uzviy bog‘liqligidir. Tog‘ay Murod qissalarida qishloq muhiti, mehnat jarayoni va tabiat tasviri qahramonlar nutqi bilan uyg‘un holda beriladi. Qahramonning so‘zlashuvi uning yashash tarzi va atrof-muhitidan ajralmagan holda tasvirlanadi. Bu esa obrazlarning yaxlitligini ta‘minlab, milliy xarakter badiiy jihatdan mukammal chiqishiga xizmat qiladi. Tog‘ay Murod ijodida sheva va til elementlari yordamida yaratilgan milliy xarakter zamonaviy muammolar bilan ham bog‘liqdir. Yozuvchi oddiy insonlar taqdiri orqali jamiyatdagi axloqiy, ijtimoiy va ma‘naviy masalalarni ko‘taradi. Milliy xarakter ana shu muammolar fonida yanada chuqurlashib, umuminsoniy mazmun kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Badiiylik asoslari va mezonlari. “Bookmany print”.T.: 2022. 11-bet



-
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: 2018. 91-bet
 3. Quronov D. Adabiy o‘ylar. “Turon zamin ziyo”.T.: 2016. 17-bet.
 4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.:2004. 131-be
 5. Rasulova U. XX asr o‘zbek qissalari tadriji. Fan nashriyoti. T.:2012. 31-bet
 6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2018. 50-bet
 7. Jo‘raqulov U. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O‘quv qo‘llanma. T.:2012.96-bet
 8. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. T.:1994. 57-bet